

## Kitoblar onlayn tarzda yetkazib berilmoqda



### **Kitoblar onlayn tarzda yetkazib berilmoqda**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martdagi PF-5969-sonli "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash hamda COVID-19 - koronavirus pandemiyasi munosabati bilan qo'shimcha choralarni belgilash maqsadida So'x tumanidagi axborot kutubxona markazining ichki mehnat tartibi qoidalariga xodimlarning masofadan turib - uy rejimida ishlashi, bunday ish rejimlaridagi mehnatni tashkil qilish va ish haqi to'lashga doir qo'shimchalar kiritildi.

Karantin vaqtidagi virusdan himoya qilish maqsadida, xodimlar mehnat faoliyati jihatidan quyidagi toifalarga bo'lindi:

- mehnat ta'tiliga chiqadigan xodimlar;
- ish haqi saqlanmaydigan ta'tilga chiqadigan xodimlar;
- masofadan - uydan turib ishlash rejimiga o'tkaziladigan xodimlar;
- mehnat faoliyatini davom ettiradigan xodimlar.

Joriy yilning 1 apreldan boshlab AKM mutasaddiy xodimlari masofadan, ya'ni uydan turib, kitobxonlarni elektron "ONLINE", "Telegram" va "Facebook" kanallari orqali kerakli elektron kitoblar bilan ta'minlab borishmoqda. Axborot kutubxona markazi 2020 yilning 1 apreldan 14 mayiga qadar 4872 ta kutubxonaga oid plakatlar, 8903 ta kutubxona hujjatlari va foydalanuvchilarga taqdim etilgan hujjatlar, 2248 ta audio kitoblar va hikoyalar, 64 ta ovozli hikoyalarni tuman axborot kutubxona markazi kanallari orqali kitobxonlar va kitobsevar o'quvchilarga yetkazib berish uchun harakat qilishmoqda. Bunday xizmat ko'rsatish tartibidan kitobsevar o'quvchilar ham xursand, chunki ularga zarur bo'lgan adabiyotlar xodimlar tomonidan qisqa vaqtda topib yetkazib berilmoqda - deyiladi Sux tumani Axborot kutubxona markazi direktori Zafarjon G'anievning bizga bergan ma'lumotida.

---

<https://www.facebook.com/groups/824034121444912/>, Kitobsevar o'quvchilar mana shu manzillarga ham murojaat etib, sevimli kitob va adabiyotlarini topib mutolaa qilishga imkoniyatlari borligini har bir kitobxonga yetkazamiz. Kitob bilimlar bulog'i ekanligini aslo unutmaylik.

**Sux tumani hokimligi Axborot xizmati**

2020-05-26 16:50:11